
TOSHLOQDA YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARI FAOLIYATINI BOSHLADI

Yozgi ta'til boshlanar ekan, o'quvchilarning vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazish muhimdir. Bu borada joylarda yozgi oromgohlarning faoliyat ko'rsatishi ayni muddaodir. Jumladan, maktablarda kunduzgi oromgohlar tashkil etilishi ham yaxshi samaralar bermoqda.

Joriy yilda Toshloq tumanidagi 12 ta umumta'lim maktablarida yozgi oromgohlarda tashkil etilib, jami 1200 nafar o'quvchilarni dam oldirish nazarda tutilgan.

Bugun tuman MMTB mudiri Abdumajid Soliyev oromgoh tashkil etilgan maktablarda bo'ldi. Maktablardagi kutubxona, sport maydonchalari, IT to'garaklari hamda beshta tashabbus bo'yicha dam oluvchilarning xohish-istaklariga ko'ra, tuman BABM tomonidan yo'lga qo'yil to'garaklar faoliyatini o'rgandi. Shuningdek, yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olayotgan yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida kitoblar tarqatdi.

2023-06-01 16:45:22